

**OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA DAVLAT BYUDJETIDAN
MOLIYALASHTIRISH HAMDA ULARNING AMALDAGI HOLATI.**

Xonimqulov Islom Ergash o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

ORCID ID:0009-0001-9983-1829

Oliy ta'lim tizimi har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim strategik ahamiyatga ega bo'lib, malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy etishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, ta'lim sifatini oshirish va ta'lim tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu jarayonda oliy ta'lim tashkilotlarini davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirish muhim o'rin tutadi.

Davlat byudjetidan moliyalashtirish oliy ta'lim tashkilotlarining uzluksiz faoliyat yuritishini ta'minlash, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, professor-o'qituvchilar va xodimlarning mehnatiga haq to'lash hamda ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Shu bois, oliy ta'lim tashkilotlarining byudjetdan moliyalashtirilish holatini tahlil qilish va amaldagi mexanizmlarni baholash dolzarb masalalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tashkilotlarini davlat byudjetidan moliyalashtirish amaldagi qonunchilik va normativ-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Davlat byudjeti to'g'risida"gi qonunlar hamda Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishning asosiy huquqiy manbalarini tashkil etadi.

Davlat byudjeti mablag'lari oliy ta'lim tashkilotlariga asosan tasdiqlangan xarajatlar smetasi asosida ajratiladi. Xarajatlar smetasida ish haqi va unga

tenglashtirilgan to'lovlar, stipendiyalar, kommunal xizmatlar, o'quv jarayonini ta'minlash xarajatlari, asosiy vositalarni saqlash va ta'mirlash xarajatlari hamda boshqa zarur xarajatlar nazarda tutiladi. Byudjet mablag'larining maqsadli va samarali sarflanishi g'aznachilik organlari tomonidan nazorat qilinadi.

So'nggi yillarda moliyaviy mustaqillik berish amaliyoti kengaytirilib, ayrim oliy ta'lim tashkilotlariga byudjet mablag'laridan tashqari qo'shimcha daromad manbalarini shakllantirish huquqi berildi. Bu esa oliy ta'lim tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shunga qaramasdan, bugungi kunda O'zbekiston oliy ta'lim tashkilotlarining asosiy moliyaviy manbai davlat byudjeti hisoblanadi. Davlat tomonidan ajratilayotgan mablag'lar hajmi yildan-yilga oshib borayotgan bo'lib, bu ta'lim sohasiga bo'lgan e'tiborning kuchayganidan dalolat beradi. Byudjet mablag'larining asosiy qismi ish haqi va stipendiyalarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi, bu esa ta'lim jarayonining barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Birgina 2025 moliya yilida oliy ta'lim sohasiga 6 683,6 mlrd. so'm ajratilgan. Oliy ta'lim xarajatlari 2026 yilgacha oliy ta'lim qamrovini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish kabi ushbu sohadagi asosiy ustuvor yo'nalishlarni hisobga olgan holda prognoz qilinmoqda (1-jadval).

1-jadval

2025 yil oliy ta'lim tashkilotlarining asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari.

mlrd so'm.

Ko'rsatkichlar	2024/2025 o'quv yili	2025/2026 o'quv yili	2026/2027 o'quv yili (prognoz)
Oliy ta'lim tashkilotlari	129	117	117
Shtat birliklari	74 147	83 044	93 009
Talabalar	1 044 609	1 092 631	1 119 924
Xarajatlar tarkibi			
Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar	Stipendiyalar		Boshqa xarajatlar

2 681,4	2 014,5	1 987,7
---------	---------	---------

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2024/2025–2026/2027 o'quv yillari oralig'ida O'zbekiston oliy ta'lim tizimida miqdoriy va moliyaviy ko'rsatkichlar barqaror o'sish tendensiyasiga ega. Xususan, oliy ta'lim tashkilotlari soni 2024/2025 o'quv yilida 129 tani tashkil etgan bo'lsa, keyingi yillarda 117 taga qisqargan. Bu holat yangi oliy ta'lim muassasalarini ochishdan ko'ra, mavjud muassasalarni optimallashtirish va yiriklashtirish siyosati olib borilayotganidan dalolat beradi.

Shtat birliklari soni 74 147 tadan 93 009 taga yetgan. Bu o'sish ta'lim sifati va qamrovini oshirish maqsadida professor-o'qituvchilar hamda yordamchi xodimlar sonining ko'paytirilayotganini ko'rsatadi.

Talabalar soni ham barqaror ravishda oshib borib, 2026/2027 o'quv yilida 1,12 million nafardan ortiq bo'lishi prognoz qilinmoqda. Ushbu holat oliy ta'limga bo'lgan talabning yuqoriligi va davlat tomonidan ta'lim qamrovini kengaytirishga qaratilgan siyosat natijasidir.

Xarajatlar tarkibi tahliliga ko'ra, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar -2 681,4 mlrd so'm bo'lib, eng katta ulushni egallaydi. Bu inson kapitaliga yo'naltirilgan xarajatlar ustuvorligini ko'rsatadi. Stipendiyalar - 2 014,5 mlrd so'm bo'lib, talabalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga xizmat qilsa, boshqa xarajatlar 1 987,7 mlrd so'm, moddiy-texnik baza va ta'lim jarayonini ta'minlash bilan bog'liq xarajatlarni qamrab oladi.

Umuman olganda, jadvaldagi ko'rsatkichlar oliy ta'lim tizimida davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirish hajmi ortib borayotganini hamda resurslar ta'lim sifati va qamrovini oshirishga yo'naltirilayotganini yaqqol aks ettiradi.

Shu bilan birga, amaldagi moliyalashtirish tizimida ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, ayrim oliy ta'lim tashkilotlarida moddiy-texnik bazaning yetarli darajada yangilanmaganligi, ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish hajmining cheklanganligi hamda byudjet mablag'laridan foydalanishda samaradorlik masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Bundan tashqari, talabalar sonining oshishi

byudjet xarajatlarining ham ko'payishiga olib kelmoqda.

Davlat byudjetidan moliyalashtirish bilan bir qatorda, oliy ta'lim tashkilotlarida kontrakt asosida ta'lim olishdan tushadigan mablag'lar, grantlar va boshqa budjetdan tashqari manbalar ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu manbalar ta'lim tashkilotlarining rivojlanishi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston oliy ta'lim tashkilotlarini davlat byudjetidan moliyalashtirish tizimi ularning barqaror faoliyat yuritishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda davlat tomonidan ta'lim sohasiga ajratilayotgan mablag'lar hajmining oshishi oliy ta'lim tizimini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, moliyalashtirish tizimini yanada takomillashtirish, budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish va oliy ta'lim tashkilotlarining moliyaviy mustaqilligini kengaytirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.